



## SANOAT CHIQINDILARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

M. Karimova

M. Yo`ldasheva

Farg`ona politexnika instituti

e-mail [kmuxtasar345@gmail.com](mailto:kmuxtasar345@gmail.com) [yoldashevamuhayyo99@gmail.com](mailto:yoldashevamuhayyo99@gmail.com).

Tel: +998916627993

**Annottsiya:** Mazkur maqolada Sanoat chiqindilaridan samarali foydalanib, sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish va atrof muhitni ekologik barqaror holatda ushlab qolishga qaratilgan g`oya va takliflar olg`a surilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлены идеи и предложения, направленные на максимально эффективное использование промышленных отходов для производства качественных строительных материалов и поддержания окружающей среды в экологически стабильном состоянии.

**Abstract:** This article presents ideas and proposals aimed at the most efficient use of industrial waste for the production of high-quality building materials and maintaining the environment in an environmentally stable state.


**Kalit so`zlar:** Sanoat chiqindisi, ishlab chiqarish, taklif, ekologiya, tabiiy resurs, qurilish materiali, polimer materiallar.

**Ключевые слова:** Промышленные отходы, производство, предложение, экология, природные ресурсы, строительные материалы, полимерные материалы.

**Keywords:** Industrial waste, production, offering, ecology, natural resources, building material, polymer materials.

Bugun qisqa furstlarda ko`plab o`zgarishlar yuz berib kelayotgan zamonda aholining yashash sharoitini yengillashtirish uchun qulay bo`lgan barcha yangi innovatsion g`oyalar biz uchun juda ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, ikkilamchi resurslardan oqilona foydalanish samarli natija berishini hisobga olgan holda Yurtimizda ko`plab o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "O'zbekneftgaz" AJ Boshqaruvi raisi Mehriddin Abdullaevning topshirig`iga asosan, boshqarma va korxonalarda ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish va ularni o`z vaqtida utilizatsiya qilish borasidagi ishlar qisqa fursatlarda amalga tadbiq qilinmoqda. "Xususan, Sho`rtan gaz kimyo majmuasidagi ishlab chiqarish chiqindilarini O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasni orqali sotish yo`lga qo'yilgan. Birja savdolari orqali ishlab chiqarish chiqindilarini sotishdagi iqtisodiy o'sishni quyidagi diagramma orqali yaqqol ko'rish mumkin:






2018-yilda 1,6 mlrd so`m;

2019-yilda 2,52 mlrd so`m;


2020-yilda 4,91 mlrd so`mdan ortiqni tashkil etdi.”[1]

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 21-apreldagi “Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi farmoni hamda “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog`liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi [2] qarorig asosan, amalga oshirilayotgan samarali ishlar natijasida, tabiat va atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo`lgan salbiy ta`sirini kamaytirish bilan bir qatorda, majmuaga iqtisodiy foyda keltirilmoqda. Sanoat chiqindilaridan tayyorlangan xom-ashyo va komponentlar, maxsus tayyorlangan xom-ashyo tan-narxidan 2-3 barobar arzon hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy o'sish jayaronini rivojlanishiga sabab bo`ladi. Masalan chiqindi tarkibiga kiruvchi shlak va kollar, turli mineral bog`lovchilar olish jarayonida yarim tayyor mahsulots sifatida ishlatilish imkonini beradi va yoqilg`ini tejaydi. “O'tgan 2020-yil davomida, sotilgan ishlab chiqarish chiqindilari ulushi quyidagi miqdorni tashkil etdi:



Quyi molekulyar polimer – 563 tonna;

Ishlatilgan alyuminiy oksidi – 478 tonna;





Ishlatilgan seolit – 123 tonna;

Ishlatilgan aktivlangan ko'mir – 63 tonna;

Ishlatilgan silikagel – 23 tonna.”[3]

Ikkilamchi resurslardan samarali fodalanimish maqsadida chiqindilarning ishatilish sohasini yanada kengaytirish joiz hisoblanadi. Shuningdek, sanoat chiqindilaridan biri hisoblanga shlaklardan ham qurilish g'ishtarini ishalab chiqarishda samarali foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki, yonilg'i kul shlak chiqindilari gidravlik aktivlikka ega hisoblanadi. Jumldan, kul shlak chiqindilariga maxsus qo'shimchalar bilan birlgilikda bug'li muhitda qayta ishlov berilganida yuqori mustahkamlikka ega mahsulotga aylanadi. Hozirgi kunda kul shlak chiqindilari qo'shib tayyorlangan qurilish g'ishtining 75-150 markalari mavjud. Ushbu chiqindi turi qo'shib tayyorlanuvchi g'ishtning yana bir qulayligi shundaki, ularni pishirmsandan ham ishalab chiqarilishidir. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu g'ishtlar qurilish qorishmalri bilan yaxshi ushlashish qobiliyatiga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] <http://sgcc.uz/uz/news/view/atrof-muhitga-joylashtiriladigan-sanoat-chiqin>
- [2] www.standart.uz
- [3] Atrof muhitga joylashtiriladigan sanoat chiqindilari birja savdolari orqali sotilmoqda // Yangiliklar — Shurtan gaz kimyo majmuasi rasmiy veb-sayti <http://sgcc.uz/uz/news/view/atrof-muhitga-joylashtiriladigan-sanoat-chiqin>
- [4] Qurilish materiallariva buyumlari. N.A. Samig'ov Toshkent-2013
- [5] Karimova, M. I. Q., & Mahmudov, N. O. (2021). THE IMPORTANCE OF ELEMENTS OF RESIDENTIAL BUILDINGS BASED ON UZBEK TRADITIONS. Scientific progress
- [7] Khasanov, A. (2020). Organizing Eco Tourism Along With Uzbek National Automagistrale Way. *Solid State Technology*, 63(6), 12674-12678